

NUTQNING IFODALILIK KOMMUNIKATIV SIFATI VA UNI YUZAGA CHIQRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Xaydarova Muborak,

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi

xaydarovamuborak2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqning ifodalilik kommunikativ sifati va bu sifadni sahkllantiruvchi lingvistik birliklar (iboralar, o'xshatishlar, ma'no ko'chish turlari, ritorik so'roq gap, alleteratsiya) ning nutqda qo'llanishi hamda ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, yuqoridagi birliklarning nutqqa qay darajada ta'sir o'tkazishi misollar yordamida ochiqqlanadi.

Kalit so'zlar: nutqning ifodaliligi, ta'sirchanlik, iboralar, o'xshatishlar, ma'no ko'chish turlari, ritorik so'roq gap, alleteratsiya, maqol, iqtibos, hadis.

Аннотация. В данной статье рассматривается выразительное коммуникативное качество речи и значение в речи языковых единиц, объединяющих это качество (выражения, сравнения, типы смысловых переносов, риторическое вопросительное предложение, аллитерация). Степень влияния вышеуказанных единиц на речь также демонстрируется на примерах.

Ключевые слова: выразительность речи, выразительность, фразы, сравнения, виды смыслового переноса, риторический вопрос, аллитерация, пословица, цитата, хадис.

Abstract. This article examines the expressive communicative quality of speech and the significance in speech of linguistic units that combine this quality (expressions, comparisons, types of semantic transfer, rhetorical interrogative sentence, alliteration). The degree of influence of the aforementioned units on speech is also demonstrated through examples.

Keywords: expressiveness of speech, expressiveness, phrases, similes, types of semantic transfer, rhetorical question, alliteration, proverb, quotation, hadith.

Kirish. Tilshunoslikda nutqning adabiy til me'yorlariga muvofiq tarzda ifoda etilishi hamda madaniy nutqning 7 ta kommunikativ sifati (to'g'rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik, jo'yalilik, boylik, ifodalilik)ni o'z ichiga olishi tilning jozibasini va mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashimizga imkon yaratadi. Shu bilan birga tilning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda nutqni yanada ta'sirli bayon etish bevosita nutqning ifodalilik sifati bilan aloqador.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nutqning kommunikativ sifatlari, xususan, ifodalilik masalasining tilshunoslikda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. N.Mahmudov va R.Sayfullayeva asarlarida nutq madaniyati va uning kommunikativ mezonlari tizimli yoritilib, ifodalilikning til vositalari orqali yuzaga chiqishi asoslab berilgan. Shuningdek, R.Rasulov va Q.Mo'ydinov nutqning ta'sirchanligini oshirishda leksik va stilistik vositalarning rolini alohida ta'kidlaydi. Z.Masharipova hamda A.Haydarov tadqiqotlarida esa fonostilistik birliklar, jumladan, alliteratsiyaning badiiy nutqdagi o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tavsifiy, tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Nutqning ifodalilik sifatini yuzaga chiqaruvchi leksik birliklar

misollar asosida lingvistik tahlil qilinib, ularning funksional xususiyatlari ochib berildi. Shuningdek, badiiy va nazariy manbalar asosida umumlashtirish usuli qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Nutqning ifodalilik sifati tinglovchining ongi hamda hissiyotiga ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyil hisoblanib, ifodalanayotgan fikrni yanada sifatli o'zlashtirishga, xotirada yorqin iz qoldirishda hamda voqealarning aniq va to'g'ri gavdalanishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi xususiyatlarni shakllantirishda esa quyidagi lingvistik birliklar muhim rol o'ynaydi:

Iboralarning – ma'nosi bir so'zga keluvchi so'z yoki gapning – og'zaki yoki yozma nutqda tez-tez uchrab turishi so'zlovchining lug'at boyligini frazeologik va leksik vositalararo sinonimiya hodisasi vositasida ko'rsatib beradi, biroq nutqda iboralardagi eskpressivlik, obrazlilikni yuzaga chiqarishi alohida ahamiyatga ega hamda hamda iboralar ma'no hajmi, qamrovi jihatidan ham so'zga nisbatan ustunlikka ega. Masalan, "xafa" so'zi o'rniga uning mazmunini ifodalash uchun "qovog'idan qor yog'gan" yoki "xursand" sifatining o'rniga "og'zi qulog'ida" kabi frazeologizmlardan foydalanish nutqning ta'sir kuchini oshirish barobarida tildagi vaziyatga bildirilayotgan munosabatning o'zgacha uslubda aks etishiga zamin yaratadi. Shuningdek, iboralarni qo'llanish doirasi va mavzusiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

- *eskirgan frazeologizmlar*: oyoq-qo'lini bog'lamoq (majburlamoq), alifni tayoq demoq (savodsiz);
- *dialektal frazeologizmlar*: alag'da bo'lmoq (xavotir olmoq), halak bo'lmoq (ovora bo'lmoq);
- *rasmiy frazeologizmlar*: qo'l qo'ymoq (imzo chekmoq), ovoz bermoq (saylamoq);
- *ilmiy frazeologizmlar*: nazar solmoq, tilga olmoq;
- *so'zlashuv frazeologizmlari*: pattasini qo'lga tutqazmoq, adabini bermoq, yoqa ushlamoq;
- *badiiy frazeologizmlar*: do'ppisi yarimta (beg'am), og'ziga talqon solmoq (gapirmaslik);
- *diniy frazeologizmlar*: ko'z tegmoq, arosatda qolmoq.

Frazeologizmlarning kontekstual ahamiyati hamda undagi obrazlilik badiiy asarlarda alohida e'tiborga molik. Xususan, "Ikki eshik orasi" romanida keltirilgan ushbu iboralar ham yozuvchining kitobxonga yetkazib bermoqchi bo'lgan badiiy g'oyasini yanada aniqroq va personajning ruhiy holatini obrazli ifoda orqali yetkazib bergan:

"Hozir dilsiyohlik bo'lishini bilib, *yuragim g'ash tortdi*"; "Kimsanim bilan xuddi shu yerda xayrlashganim esimga tushib *yuragim ob bo'lib ketyapti*"; "Soatni *boshingga urasanmi!*"

O'xshatishlar – so'zlovchining mahorati bilan uning lisonida shakllanuvchi hamda nutqida namoyon bo'luvchi ushbu tashbehlar nutqqa yangicha ruh qo'sha oladi. Misol uchun, jumalalarda shunchaki "yo'q bo'lmoq" yoki "qizib ketmoq" so'zlari o'rniga

“dengizga otilgan toshday yo‘q bo‘lmoq” hamda “sahrodagi toshday qizimoq” kabi badiiy vositalar orqali ifoda etish notiqning so‘z tanlashdagi va uni amalda qo‘llashdagi yuksak mahoratini ko‘rsatib beradi. Ushbu turdagi nutq birliklarining yuksak namunasini esa Sadridin Ayniyning asarlaridagi “kuyib turgan o‘tning birdan alangalaganiday o‘rnidan irg‘ab turdi”, “kasalxonaga olib borilayotgan bemorday ko‘rpa ustida cho‘zilib yotibman”, “erining ustidan yig‘alayotgan xotinday har tomon baqirib yig‘lamoqda edi” kabi o‘xshatishlari sodir bo‘layotgan voqealikning ta’sirchan ruhda kitobxonga yetkazib berilishini ta’minlagan.

Qolaversa, xalq og‘zaki ijodining mahsuli hisoblangan *maqollar* o‘zida falsafiy qarashlarni aks etib nutqning jozibasini ko‘rsatsa, *matallar* fikr mazmunining ko‘lamini yanada ochiq bayon etishga xizmat qiladi. Misol tariqasida, “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘”, “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt ” kabi maqollar nafaqa o‘zidagi didaktik ruh va mazmunan aniqlik, lo‘ndalikni, balki ta’sir doirasining kuchli namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi hamda “qizil qor yog‘ganda” yoki “dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am” kabi matallar esa tinglovchiga fikrni yetkazib berishda subyektivlikni yuzaga chiqarib, nutqning tez va oson “hazm qilinish”iga imkon yaratadi. Shu o‘rinda *iqtibos* va *hadislardan* nutq jarayonida dalil sifatida foydalanish nutqning ta’sir o‘tkazish darajasini kuchaytiradi hamda yodda muqim saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Yana bir nutqning ifodaliligini ta’minlovchi leksik birliklardan biri bu – *ma’no ko‘chish turlari*: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik. *Metaforalar* so‘zlarning shakliy, joylashuv va mazmuniy o‘xshashligi asosida ma’noning ko‘chishini yuzaga keltiradi. Misol uchun, “samolyotning dumi” metaforasi “dum” sohasining hayvonlardagi joylashish o‘rniga muvofiqlik asosida, “sovuq chehra” birikmasi orqali “sovuq” so‘zidagi salbiy mazmuniy munosabat, “uzukning ko‘zi” ko‘chimi esa shakliy jihatdan o‘xshashlik asosida metaforani shakllantirgan. Qolaversa, Oybekning “Na’matak” she’rining ham boshdan oyoq metaforalar (na’matakning chayqalishi, quyoshga gullar ko‘tarishi, qoyaning o‘shshayishi) asosida yuzaga chiqqani yanada asarning qiymati va jozibasini oshirgan:

Nafis chayqaladi bir tup na’matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida.

Metonimiya esa borliqdagi tushunchalarning muayyan aloqadorlik asosida bir nomning boshqa nom ostida tejamkorlik orqali qayta nomlanish hodisasi hisoblanadi. Misol uchun, “O‘zbek o‘zbek emas – Qodiriyni bilmasa, Fitratni anglamasa” jumlasida Qodiriyning asarlaridagi ijtimoiy holat va Fitratning ozodlik yo‘lidagi sa’y-harakatlari nazarda tutilgan va tilga olingan shaxslar va ularning faoliyatidagi aloqadorlik metonimiya orqali aks etgan.

Shuningdek, *sinekdoxa* ham butun va qism munosabati asosidagi ma'no ko'chirish orqali yuqoridagi masalaga zamin yaratishga xizmat qiladi. Masalan, "hovlimizga olma ekdik" gapida qism (olma mevasi) orqali butun (ko'chat) anglashilsa, "qo'lida qimmatbaho uzuklari bor edi" jumlasida esa butun (qo'l) orqali qism (barmoq) nazarda tutilgan.

Qolaversa, nutqda qo'llanuvchi *kinoyalar* va ular yuzaga chiqaradigan zid ma'no nutqning ta'sir kuchini oshiradi. Misol uchun, "Nahot sizday "olim-u dono" shaxs "O'tkan kunlar"ni o'qimagan bo'sa-ya?" Ushbu jumladagi "olimi dono" so'zi kontekstdan tashqari ilmiy, ziyoli shaxsni ifodalaydi, biroq bu jumlada uning qo'shtirnoq ichida kinoyaviy mazmunda aks etgani unda anglashiladigan ma'noning teskari ifodasini namoyon etadi.

Ilmiy izlanishlar davomida shuni ham ta'kidlash joizki, nutqda *ritorik so'roq* gaplardan foydalanish bayon etilayotgan fikrning tinglovchiga kuchli ohang orqali hamda ta'sirli holda yetkazilishini ta'minlarda va ulardagi yana bir muhim xususiyat javob talab qilmaslik hamda javobni o'zing tarkibida mujassam etish hisoblanadi. Misol uchun, "Hamma vatanini sevadi" gapidan ko'ra "Kim vatanini sevmaydi?!" yoki "Ona muqaddas zot" jumlasidan esa "Ona muqaddas zot emasmi?!" jumllarining kuchli ohang va ta'sir doirasining kengligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ritorik so'roq gaplardagi pauza ifodali nutqqa kuchli emotsionallik, yorqinlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Alleteratsiya – nasr yoki nazmda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Asosoan, she'riy uslubdagi ijod namunalarida uchrovchi ushbu birlik badiiy nutqning ohangdorligini ta'minlash bilan birga nutqning intonatsion jihatdan ta'sirli ifoda etilishini o'zida aks ettiradi. Misol uchun, shoir Elbekning ijod namunalaridan birda "k" undoshining takrori asosida bu san'at mahorat bilan ko'rsatib berilganini she'riyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta'sirchanlik bo'rttirilishini, uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligi vujudga keltirilishini namoyon etgan:

Ko'klamda ko'karsa ko'k ko'katlar,
Ko'klarga ko'milsa katta-kattalar,
Ko'm-ko'k ko'karib ko'rinsa ko'llar,
Ko'ngilni ko'tarsa ko'rkli gullar.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, nutqning tinglovchiga ta'sir etish ko'lamini oshiruvchi yana bir muhim birlik bu sinonimik qatorlardan sara so'zlar tanlovi hisoblanadi. Bosi siz-u biz kamdan kam foydalanadigan so'zlarni nutq jarayoniga olib kirish nutqqa yangicha ruh va estetik yonashuvni shakllantiradi hamda eng muhim jihati tilimizning lug'atlaridagina muqim qolib ketgan so'zlarni iste'molda ham "jonlantirib", adabiy til ko'lamini yanada kengaytiradi.

Xulosa. Xulosa shuki, nutqning ifodalilik kommunikativ sifati, fikrning tinglovchiga (yoxud o'quvchiga) o'rinli va to'g'ri yetkazish asnosida undagi obrazlilikni yanada ochib beradi. Ijtimoiy masalalarga doir kunlik suhbatlarda, ayniqsa badiiy asarlarda iboralardan foydalanish leksik va frazeologik sinonimiya hodisasini orqali ularni

boyitsa, o'xshatishlar nutqiy vaziyatni kengroq ochib beradi; maqol va matallar tinglovchiga yuqori darajadagi ta'sir ko'lamini shakllantirsa, ma'no ko'chish turlari orqali esa gapdagi so'z va birikmlarning xilma-xillik asosida ma'no ifodalashining guvohi bo'lishimiz mumkin, qolaversa, ritorik so'roq gaplar orqali jumlar yuqori ohangda yetkazib berilsa, alliteratsiya badiiy san'ati orqali she'riy misralardagi ohangdorlik namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайдарова, М. «Теория и практика качества коммуникативной речи». Восточный филологический журнал , том 5, № 06, дек. 2025 г., стр. 296-03, doi:10.37547/supsci-ojp-05-06-42.
2. Raupova L. Nutq madaniyati //Toshkent:"Innovatsiya ziyo. – 2019
3. Rasulov R., Mo'ydinov Q. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati //Fan va texnologiyalar. – 2020.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati //T.: A. Navoiy nashr. – 2009.
5. Sayfullayeva, R. **Hozirgi o'zbek adabiy tili** / R. Sayfullayeva. – Toshkent : O'qituvchi, 2009. – Kirish rejimi:
6. Ayniy, S. Sudxo'ring o'limi : qissa / Sadridin Ayniy. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2016.
7. Masharipova Z. Ifodali oqish praktikumi //Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti-2011 y.
8. Хайдаров А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т.,2008.
9. Azizbek Berdiyev Asatillayevich. Alliteratsiya uning o'ziga xos xususiyatlari. 7 июль 2022 г.<https://doi.org/10.5281/zenodo.6807955>.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934